



## ANDIJON VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil  
yanvar-mart



Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-mart)

**Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlik  
ulushi – 66,2%**



**Aholi jon boshiga  
xizmatlar hajmi –  
1 722,4  
ming so'm**




**Xizmatlar  
sohasidagi  
korxonalar va  
tashkilotlar  
ulushi – 70,0%**




**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

## Soni, birlikda





## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-aprel holatiga ko'ra)



## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-mart)

## Soni, birlikda



## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1- aprel holatiga ko'ra)

Soni, birlikda

63,8%



2024

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

2020



58,0%

2024

15 147

2023

16 036

2022

20 373

2021

18 950

2020

15 678

Soni, birlikda

2024

656

2023

675

2022

730

2021

891

2020

1 170

64,0%

## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-mart)

2024

65,3%

Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi


2020



## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-mart)



### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hisyasi (2024- yil yanvar-mart)



<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-mart)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Viloyat bo'yicha jami	<b>5 859,0</b>	<b>100,0</b>	<b>111,4</b>
shahar va tumanlar:			
Andijon sh	2 237,0	38,2	112,3
Xonobod sh	135,0	2,3	112,0
Oltinko'l	246,5	4,2	111,6
Andijon	345,8	5,9	111,2
Baliqchi	305,3	5,2	111,5
Bo'ston	113,8	1,9	112,4
Buloqboshi	195,8	3,3	110,3
Jalaquduq	257,5	4,4	110,8
Izboskan	271,3	4,6	110,4
Ulug'nor	99,8	1,7	111,1
Qo'rg'ontepa	288,3	4,9	110,4
Asaka	377,0	6,4	109,5
Marhamat	232,7	4,0	111,7
Shahrihon	306,0	5,2	111,0
Paxtaobod	215,3	3,7	110,5
Xo'jaobod	232,0	4,0	111,1

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

## Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-mart)



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-mart)

Hudud nomi	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Andijon viloyati	1 722,4	109,1%
Andijon shahri	4 638,2	109,3%
Xonobod shaxri	2 941,1	110,0%
Oltinko'l	1 281,3	109,9%
Andijon	1 205,6	108,8%
Baliqchi	1 412,1	109,2%
Bo'ston	1 458,4	110,1%
Buloqboshi	1 277,2	108,1%
Jalaquduq	1 292,7	108,8%
Izboskan	1 060,7	108,3%
Ulug'nor	1 561,9	109,7%
Qo'rg'ontepa	1 249,1	108,3%
Asaka	1 060,0	107,2%
Marhamat	1 246,3	109,4%
Shahrixon	940,9	108,5%
Paxtaobod	1 028,9	108,1%
Xo'jaobod	1 929,8	108,5%

## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-mart)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **66,2** foizni, shu jumladan, **15,4** foizini kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-mart)






## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-mart)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>5 859,1</b>	<b>100,0</b>	<b>111,4</b>
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	278,3	4,7	110,2
Moliyaviy xizmatlar	1 232,6	21,1	113,2
Transport xizmatlari	1 219,5	20,8	112,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 190,0	20,3	110,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	127,9	2,2	108,6
Savdo xizmatlari	1 741,5	29,7	110,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	136,2	2,3	110,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	260,0	4,5	109,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	105,7	1,8	110,9
Ijara xizmatlari	110,6	1,9	110,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	131,2	2,2	109,0
Shaxsiy xizmatlar	292,4	5,0	107,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	58,6	1,0	126,5
Boshqa xizmatlar	164,6	2,8	118,6

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-mart)




## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-mart, mlrd so'mda)

Andijon viloyati	1232,6
Andijon shahri	382,9
Xonobod shahri	21,7
Oltink'ol	51,2
Andijon	86,5
Baliqchi	81,4
Bo'ston	23,7
Buloqbooshi	49,1
Jalaquduq	60,7
Izboskan	71,4
Ulug'nor	28,4
Qo'rg'ontepa	64,5
Asaka	87,5
Marhamat	45,0
Shahrixon	76,1
Paxtaobod	47,7
Xo'jaobod	54,8

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-mart)

Yordamchi moliyaviy faoliyat



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024- yil yanvar-martida 87,5** foizni tashkil etdi.


Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **31,0** foizni yoki **382,9** mlrd so'mni tashkil etdi. **2023- yil yanvar-mart** oylariga nisbatan Andijon shahrida yuqori o'sish sur'ati **122,1** foizni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **97,6** foiz.

Andijon shahrida transport xizmatlari hajmi **553,6** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **113,2** foizni tashkil etgan.

## Transport xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-mart)



## Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar-mart)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd so'mda	O'sish surati
Andijon viloyati	1219,5	112,4%
Andijon shahri	553,6	113,2%
Xonobod shahri	36,8	112,0%
Oltink'ol	42,8	112,5%
Andijon	50,7	112,2%
Baliqchi	88,1	111,3%
Bo'ston	16,4	112,6%
Buloqboshi	38,2	111,1%
Jalaquduq	41,2	111,2%
Izboskan	52,1	111,7%
Ulug'nor	16,6	110,6%
Qo'rg'ontepa	39,7	111,4%
Asaka	57,7	111,5%
Marhamat	50,1	112,1%
Shahrixon	48,0	110,6%
Paxtaobod	46,2	111,9%
Xo'jaobod	41,3	111,8%

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd so'mda

⚙️ O'sish surati

## Savdo xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-mart)

2024- yil yanvar-mart oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **81,0** foizni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024- yil yanvar-mart)



Hudud nomi	Hajmi, mlrd so'mda	O'sish sur'ati
Andijon viloyati	1 741,5	110,2%
Andijon shahri	723,9	108,8%
Xonobod shaxri	38,3	111,0%
Oltinko'l	89,1	111,6%
Andijon	102,1	112,1%
Baliqchi	73,0	111,8%
Bo'ston	37,1	114,0%
Buloqboshi	55,2	111,1%
Jalaquduq	76,5	111,2%
Izboskan	57,3	108,9%
Ulug'nor	20,4	114,1%
Qo'rg'ontepa	92,3	110,4%
Asaka	113,6	108,7%
Marhamat	63,3	113,4%
Shahrixon	80,7	113,0%
Paxtaobod	54,6	110,1%
Xo'jaobod	64,1	111,9%

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

● O'sish sur'ati


## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-mart)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-mart** oylaridagi ulushi **94,6 %**ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-mart)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-mart)



2024- yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **260,0** mlrd so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **109,8 %** ni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024- yil yanvar-mart, mlrd so'mda)

<b>Andijon viloyati.</b>	<b>260,0</b>
Andijon shahri	126,9
Xonobod shahri	2,3
Oltinko'l	4,6
Andijon	26,9
Baliqchi	5,6
Bo'ston	3,3
Buloqboshi	5,6
Jalaquduq	7,6
Izboskan	9,6
Ulug'nor	4,8
Qo'rg'ontepa	10,9
Asaka	15,6
Marhamat	8,1
Shahrixon	14,4
Paxtaobod	8,3
Xo'jaobod	5,5

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-mart)

**2024- yil yanvar-mart** oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **105,7** mlrd so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,8 %** ini tashkil etdi.



## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-mart)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd so'mda	O'sish sur'ati
<b>Andijon viloyati</b>	<b>105,7</b>	<b>110,9%</b>
Andijon shahri	39,2	111,2%
Xonobod shahri	3,2	111,5%
Oltink'ol	2,7	111,9%
Andijon	5,4	113,2%
Baliqchi	4,3	113,7%
Bo'ston	2,5	113,1%
Buloqbooshi	3,1	111,0%
Jalaquduq	4,4	110,9%
Izboskan	4,9	111,1%
Ulug'nor	2,5	109,5%
Qo'rg'ontepa	7,2	109,6%
Asaka	8,7	110,3%
Marhamat	5,0	109,7%
Shahrixon	5,1	110,7%
Paxtaobod	4,0	108,4%
Xo'jaobod	3,5	110,8%

■ Hajmi, mlrd so'mda


● O'sish sur'ati



# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-mart)



2024- yil yanvar-mart oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **136,2 mlrd** so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,3 %** ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar-mart)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda




## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-mart)

**2024- yil yanvar-mart** oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **86,4** foiz.




## Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-mart)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda      O'sish sur'ati

## Ijara xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-mart)




■ Hajmi, mlrd so'mda



O'sish sur'ati

## Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-mart)



**2020- yilning yanvar-mart** oylariga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **110,6** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **1,9 %** ni tashkil etdi.

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd so'mda



# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-mart)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 15,4 foizini tashkil etadi.

## Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-mart)


Andijon viloyati.	131,2
Andijon shahri	35,1
Xonobod shahri	3,0
Oltinko'l	6,2
Andijon	8,7
Baliqchi	4,8
Bo'ston	2,8
Buloqboshi	4,6
Jalaquduq	7,9
Izboskan	10,5
Ulug'nor	2,5
Qo'rg'ontepa	8,5
Asaka	9,4
Marhamat	7,6
Shahrixon	8,7
Paxtaobod	6,2
Xo'jaobod	4,7

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda Hajmi, mlrd so'mda




# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

## Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-mart)



## Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-mart, mlrd so'mda)



**2020- yilning yanvar-mart** oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **58,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **46,2%** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel.: 74-228-30-83



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

**Huquq va buxgalteriya sohasidagi xizmatlar hajmi** – bu huquq sohasidagi bozor xizmatlaridan, mijozlarga ularning qonuniy huquq va majburiyatlari hamda boshqa huquqiy xizmatlar bo'yicha maslahat berishdan, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritishdan, buxgalterlik hisobi va audit, soliq deklaratsiyalarini tayyorlashdan olingan daromadlar miqdori demakdir.

**Yuridik xizmatlar hajmi** fuqarolik, jinoiy ishlarda, mehnat tortishuvlarida maslahat xizmati ko'rsatish va vakillik qilishni, shuningdek, yuridik hujjatlarni tayyorlash, sud ijrochilari, hakamlik sudyalari, inspektorlar va sudyalarning xizmatlari, sudlarda va boshqa sud organlarida advokatlar kollegiyasining a'zolari bo'lgan yoki ularning nazorati ostidagi shaxslar tomonidan yuridik vakillik va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari narxini o'z ichiga oladi.